

O'ZBEKISTONNING TURIZM SALOHIYATI VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

*Sodiqova Feruza Nodirbek qizi
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Turizm yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur ishda mahalliy turizm sohasining rivojlanishi va uning jamoalarga ta'siri tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ichki va mintaqaviy imkoniyatlarga, mavjud resurslardan oqilona foydalanish yo'llariga hamda mahalliy aholining turizm faoliyatida ishtirokini kuchaytirish masalalariga qaratilgan. Tadqiqotda turizm infratuzilmasi, madaniy meros obyektlari, tabiiy landshaftlar va mahalliy mahsulotlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi yoritiladi. Shuningdek, ichki turizm oqimlarini ko'paytirish, mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirish va jamoalarning o'ziga xosligini saqlab qolgan holda ularni turizmga jalg qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ish amaliyotchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va turizm sohasi bilan shug'ullanuvchi mahalliy hokimiyat vakillari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Keyword: Ipak yo'li, turizm infratuzilmasi, turizm oqimlari, madaniy me'ros obyektlari, resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy jamoalar, og'zaki ijod, raqamli texnologiyalar, mahalliy turizm, ichki navbatchilik.

Аннотация: В данной работе рассматривается развитие внутреннего туризма и его влияние на местные сообщества. Основное внимание уделено внутренним и региональным возможностям, рациональному использованию имеющихся ресурсов, а также усилению участия местного населения в туристической деятельности. В исследовании освещаются вклад туристической инфраструктуры, объектов культурного наследия, природных ландшафтов и местной продукции в экономическое и социальное развитие. Кроме того, предлагаются рекомендации по увеличению внутренних туристических потоков, укреплению межрегионального сотрудничества и привлечению сообществ к туризму с сохранением их самобытности. Работа может быть полезна практикам, исследователям и представителям местной власти, занимающимся вопросами туризма.

Ключевые слова: Шелковый путь, туристическая инфраструктура, туристические потоки, объекты культурного наследия, рациональное использование ресурсов, местные сообщества, устное народное творчество, цифровые технологии, местный туризм, внутренняя дежурность.

Annotation: This paper explores the development of local tourism and its impact on communities. The focus is on internal and regional opportunities, the

efficient use of available resources, and increasing local community participation in tourism activities. The study highlights the contribution of tourism infrastructure, cultural heritage sites, natural landscapes, and local products to economic and social development. It also offers recommendations for increasing domestic tourist flows, strengthening interregional cooperation, and involving communities in tourism while preserving their identity. This work may be useful for practitioners, researchers, and local government representatives involved in the tourism sector.

Keywords: Silk Road, tourism infrastructure, tourist flows, cultural heritage sites, rational use of resources, local communities, oral folklore, digital technologies, local tourism, internal duty rotation.

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi va Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda turizm sohasining YAIM dagi ulushi yildan yilga o'sib bormoqd. 2023-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston turizm sohasining YAIM dagi ulushi taxminan 5% atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2016-yilda deyarli ikki baravarga oshib, atigi 2,5% ni tashkil etgan edi. 2023-yilda O'zbekistonga 6,6 milliondan ortiq xorijiy sayyoohlar tashrif buyurgani qayd etilgan. Ularga ko'plab xizmatlar ko'rsatilgan. Jumladan, mehmonxonalar, transport, ovqatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatilib, O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el valyutasini olib kirib, katta foyda keltirgan. Kelgusida YAIM hajmini oshirish maqsadida ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va sarmoyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida kutilayotgan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hukumati 2030-yilgacha turizmning YAIM dagi ulushini 10% gacha yetkazishni rejalashtirmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror tarmoqlaridan biri sifatida turizm sohasi tobora katta e'tiborga olinmoqda. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy geografik imkoniyatlari va mehmondo'st xalq urf-odatlari uni xalqaro turizm bozori uchun jozibali hududga aylantirmoqda. Ayniqsa, Ipak yo'li bo'ylab joylashgan qadimiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrисабз va Toshkent singari maskanlar nafaqat tarixiy obidalar, balki zamonaviy turistik xizmatlar bilan ham ajralib turadi. Mazkur maqolada O'zbekistonning turizm salohiyati, mavjud imkoniyatlar va rivojlanish strategiyalari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi turizm sohasida katta salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlardan biridir. Uning hududida qadimiy tarix, boy madaniy meros, tabiiy go'zalliklar va rang-barang urf-odatlar uyg'unlashgan bo'lib, bu omillar yurtimizni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro turizm uchun ham jozibador maskanga aylantiradi. Ayniqsa, Ipak yo'li bo'ylab joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrисабз kabi shaharlar ming yillik tarix va me'morchilik durdonalari bilan mashhur bo'lib, ularning har biri jahondagi yirik sayyoohlik markazlari bilan bellasha oladi. O'zbekistonning turizm salohiyati asosan to'rtta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: madaniy-tarixiy turizm, ziyyarat turizmi, ekoturizm va

ishbilarmonlik turizmi. Respublikada 7400 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ularning 1100 dan ortig‘i xalqaro ahamiyatga ega, xususan, UNESCOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan obidalar soni ortib bormoqda. Ziyorat turizmi esa islom dunyosining ko‘plab davlatlaridan keluvchi sayyoohlar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Qutayba ibn Muslim kabi ulug‘ allomalarining maqbaralari mavjud. Shuningdek, O‘zbekistonning tabiiy landshaftlari, tog‘li hududlari, cho‘l va ko‘l tizimlari ekoturizm va sog‘lomlashtirish yo‘nalishlarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston hukumati tomonidan turizmni kompleks rivojlantirish maqsadida bir qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Turizm strategiyasi asosida sohaga oid qonunchilik bazasi takomillashtirildi, xorijiy sayyoohlar uchun vizasiz tartib joriy qilindi va e-viza tizimi yo‘lga qo‘yildi. Transport va mehmonxona infratuzilmasi tubdan yangilanmoqda, yangi xalqaro aeroportlar va mehmonxonalar, zamonaviy turizm klasterlari barpo etilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonning sayyoohlilik brendi ostida (Visit Uzbekistan, The Pearl of the Orient) xalqaro ko‘rgazmalar, media-kampaniyalar orqali mamlakatning turizm imijini mustahkamlash ishlari olib borilmoqda. 2024-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatga 6,2 milliondan ortiq xorijiy sayyooh tashrif buyurdi va turizm sohasidan tushgan valyuta tushumi 1,7 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa 2019-yilga nisbatan 15 foizga o‘sishni ko‘rsatadi. Bu yutuqlar shuni anglatadiki, O‘zbekiston turizmi nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy talab va texnologiyalar bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda. Kelgusida sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, mahalliy jamoalarning faol ishtirokini ta’minlash, ekologik barqarorlik tamoyillariga amal qilish orqali turizmning barqaror va raqobatbardosh tarmog‘i shakllantiriladi. Shu tariqa O‘zbekiston yaqin yillarda Markaziy Osiyodagi eng ilg‘or va jozibali sayyoohlilik markazlaridan biriga aylanishi shubhasiz. Turizm sohasining hududiy diversifikatsiyasi ham O‘zbekistonda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda, ya’ni turistik faoliyatni faqat Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik tarixiy shaharlargagina qaratib qolmasdan, Farg‘ona vodiysi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Navoiy viloyatlari kabi nisbatan kam yoritilgan hududlarning turizm salohiyatini ham to‘liq ohib berishga harakat qilinmoqda. Masalan, Farg‘ona vodiyida hunarmandchilik, agrar turizm va madaniy festivallar orqali yangi turistik yo‘nalishlar yaratilmoqda, Qoraqalpog‘istonda esa Moynaqdagi ekologik turizm, Orolbo‘yidagi “Orol apokalipsisi” deb ataluvchi yangi turistik konsepsiylar, Nukusdagi Savitskiy muzeyi kabi ob’ektlar xalqaro miqyosda tanila boshladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi Termiz shahri va uning atrofidagi Buddaviylik davriga oid tarixiy yodgorliklar, tabiiy geoparklar va qadimiy madaniy qatlamlar ilmiy-turistik qiziqish uyg‘otmoqda. Bu esa regional iqtisodiyotlarning turizm orqali rivojlanishiga xizmat qilib, mahalliy aholini ish bilan ta’minlash, ijtimoiy

infratuzilmani yaxshilash hamda turizmga oid kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish va global onlayn platformalar bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turistik joylarning Google Maps, TripAdvisor, Booking.com, Airbnb kabi xalqaro platformalarda faol targ‘ib qilinishi, sayyoohlar uchun qulay mobil ilovalar, audio gidlar va virtual ekskursiyalar yaratish bu boradagi dolzarb vazifalardandir. Shu bilan birga, turizm sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish, statistika va bozor tahlilini tizimli olib borish orqali asosli strategiyalar ishlab chiqish lozim. Turizm nafaqat sayyoohlik harakati, balki murakkab iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning yig‘indisidir. Shu sababli bu sohaga sarmoya jalb qilishda xususiy sektor vakillari, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish orqali yanada barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Shu asosda, O‘zbekiston Respublikasi kelgusi yillarda o‘zining turizm sektorini barqaror, innovatsion, inklyuziv va ekologik jihatdan muvozanatli yo‘nalishda rivojlantirish uchun zarur salohiyat va siyosiy irodaga ega ekani ayon bo‘ladi. O‘zbekistonda turizm sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu borada tizimli yondashuv zarurati mavjud. Ayniqsa xorijiy tillarni biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalariga ega gidlar, menejerlar, marketing mutaxassislari va mehmonxona xodimlari tayyorlash borasida oliy ta’lim muassasalari, kollejlar hamda kasb-hunar maktablari o‘rtasida yaqin integratsiyani ta’minalash zarur. Turizm ta’limi faqat nazariy bilim bilan cheklanmasligi, balki amaliyotga yo‘naltirilgan, loyihibiy yondashuvlar asosida tashkil etilishi lozim. Xususan, “dualist ta’lim” modeli asosida mehmonxona, sayyoohlik agentliklari va aeroportlar bilan bevosita hamkorlikda o‘quv jarayonlarini yo‘lga qo‘yish orqali malakali mutaxassislar yetishtirish mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, yoshlar o‘rtasida turizm tadbirkorligini rivojlantirish uchun startap grantlari, biznes-inkubatorlar va axborot-konsalting markazlarini ko‘paytirish ham muhim vazifalardan biridir. Bu orqali mahalliy darajada innovatsion turistik mahsulotlar, masalan, interaktiv ekskursiyalar, mobil ilovalar, mahalliy brend sovg‘alar, yangi formatdagi gastronomik va festival turizmi shakllarini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekistonda turizm barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun milliy identitetni saqlagan holda zamonaviylikni tatbiq etish muvozanatini topish zarur. Ya’ni, tarixiy obidalarni faqat restavratsiya qilish emas, balki ularni interfaol va immersiv (ya’ni to‘liq hissiy ishtirokni ta’minalaydigan) shaklda sayyoohlarga taqdim etish orqali madaniy merosni jozibador qilib ko‘rsatish mumkin. Misol uchun, “raqamli muzeylar”, “tarixiy voqealarning 3D rekonstruksiyasi”, “interfaol teatrli ekskursiyalar” orqali sayyoohlarga yangi tajribalar yaratish xorijiy amaliyotda muvaffaqiyatli ishlamoqda va O‘zbekiston sharoitida ham tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, global iqlim o‘zgarishlari fonida

ekologik barqaror turizmga o'tish dolzarb bo'lib bormoqda, bu esa yashil texnologiyalardan foydalanish, chiqindisiz xizmat ko'rsatish, suv va energiya tejash, tabiiy landshaftlarni saqlash va bioxilma-xillikni himoya qilishga qaratilgan choralarining joriy etilishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonda "eko-sertifikatlash" tizimini joriy qilish, mehmonxonalar va sayyoqlik agentliklarining ekologik reytingini ishlab chiqish, milliy bog' va qo'riqxonalarni turizmning doimiy manbai sifatida rivojlantirish muhim strategik yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Natijada, O'zbekiston turizm sohasini nafaqat iqtisodiy yutuqlar bilan, balki ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat va milliy madaniyatni targ'ib etuvchi kuchli vosita sifatida shakllantirish sari dadil qadamlar tashlamoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy sayti: (murojaat qilingan sana: 2025-yil 10-iyul).
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Turizm sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar – 2023/2024-yillar". UNESCO World Heritage Centre. "World Heritage List – Uzbekistan".
4. Ergashev, N.S. (2020). *O'zbekiston turizm salohiyati: rivojlanish istiqbollari va muammolar*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
5. Tursunov, B.Y. (2021). "Turizm sohasining barqaror rivojlanishi uchun strategik yondashuvlar". *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* jurnali, №4, 45–52-betlar.
6. WTTC (World Travel & Tourism Council). "Economic Impact Reports – Uzbekistan 2024
7. Azizova, M.X. (2022). *Raqamli turizm va marketing: zamonaviy yondashuvlar*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
8. Karimov, S.R. (2021). "Zamonaviy turizm tarmoqlarining tahlili va O'zbekistonda qo'llanishi". *Turizm va ijtimoiy taraqqiyot* jurnali, №2, 30–38-betlar.